

PUNKTUATSIYA BELGILARINING LINGVOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Karimov Farxod Toshtemirovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
psixologi

ANNOTATSIYA

O‘zbek tili punktuatsiyasining birinchi asosi o‘zbek tilining grammatic sistemasi nutqning mazmun, intonatsiya va tuzilish tomonlarining bir butunligini tashkil qiladi. Bu o‘zbek tili punktuatsiyasining negizidir. Tinish belgilari gap va nutqning mazmun mundarijasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan fonetik-fonologik vositalarni yozuvda ifodalash uchun qo‘llanadi. Ushbu maqolada punktuatsiyaning muhim tinish belgilaridan nuqta va vergulning lingvopsixologik xususiyatlari haqid so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili punktuatsiyasi, grammatic sistemasi, tinish belgilari, nuqta va vergulning lingvopsixologik xususiyatlari, fonetik-fonologik

LINGUVOPSYCHOLOGICAL PROPERTIES OF PUNCTUATION SYMPTOMS

ABSTRACT

The first basis of Uzbek punctuation is the grammatical system of the Uzbek language, which integrates the content, intonation and structure of speech. This is the basis of Uzbek language punctuation. Punctuation is used to describe phonetic and phonological devices that play an important role in shaping the content of speech and speech. This article discusses the linguistic and psychological features of punctuation and commas, which are important punctuation marks.

Keywords: Uzbek punctuation, grammatical system, punctuation, linguopsychological features of periods and commas, phonetic-phonological.

KIRISH

Punktuatsiya termini lotincha punctum so‘zidan olingan bo‘lib, aslda nuqta, o‘rin, joy tushunchalari bilan bog‘langan bo‘lsa ham, tilshu-noslikda nutq oqimidagi intonatsion-prasodik to‘xtamlarni, yozuvda ifodalanadigan shartli belgilar yig‘indisini (tinish belgilarini) anglatadi.

Punktuatsiya tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, tinish belgilari (punktogramma) va ularning qo‘llanish qonun-qoidalarini o‘rgatadi. Punktogramma muayyan yozuv tizimi (grafika) ning uzviy qismi bo‘lib, yozma nutqning ayrim yozuv belgilari (masalan, raqamlar, harflar, diakritik va transkripsion belgilar kabi) bilan ifodalash mumkin bo‘lma-gan tomonlarini aniq belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Tinish belgilari yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining o‘zaro logik-grammatik munosabatlarini ko‘rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlataladi. Punktuatsiya, bir tomonidan, yozuvchiga o‘z yozma nutqini aniq, to‘g‘ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomonidan, o‘quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi; bir tinish belgi yozuvchi tomonidan qanday ma’no va vazifada qo‘llangan bo‘lsa, mazkur tinish belgi o‘quvchi tomonidan ham xuddi shunday vazifada tushuniladi.

Demak, tinish belgilari “Yozma nutqning tushunilishini osonlashti-rish uchun qo‘llaniladi” (Baduen de Kurtene) va uni oydinlashtiradi, anqlik kiritadi. Tinish belgilaringin o‘rinli qo‘llanmasligi ma’lum bir sintaktik qurilmani ham mazmun, ham tuzilishii jihatidan o‘zgarib ketishiga olib keladi. Masalan, Afandi podshoga qarab: Siz axmoq odam emassiz, – dedi (latifa) gapida axmoq so‘zidan keyin pauza berilib (tire yoki vergul qo‘yilib) o‘qilsa, gap podshoning aklliligi haqida emas, balki uning ham axmoq, ham yomon odamligi haqida boradi. Qir-adirda lola gulpar ochilgan (U.) gapida lola so‘zidan keyin vergul qo‘yilmasa, faqat lolalar ochilganligi; vergul qo‘yilsa, loladan tashqari boshqa gullar ham ochilganligi anglashiladi.

Tinish belgilari yozuvdan keyin paydo bo‘lgan. Qadimgi yozuvlar piktografik (rasm yozuv), logografik (so‘z yozuv) shakllarida bo‘lganli-gidan, punktuatsiyaga extiyoj sezilmagan. Punktuatsiya yozuvning keyingi taraqqiyotida shakllana boshlagan. Yozuvning sintetik usulidan analitik yozuv usuliga o‘tilishi, endi yozuvda grafemalarni – belgilarni ajratish, bir harfli so‘zni ko‘p harfli so‘zdan, so‘zni so‘zdan ajratish ehtiyojining tug‘ilishi, fikrni mantiqli bayon qilish, maqsadni to‘g‘ri ifodalash zaruriyati kabilar bora-bora yozuvga ayrim ishoralarning kiritilishiga olib keldi. Qadimgi yozma matnlarda so‘zlar: a) bo‘sh joy, interval (oraliq masofa), b) nuqtalar, v) ayrim belgilar (masalan, qizil rang) vositasida ajratilgan. Punktuatsiya belgilaini lingvopsixologik jihatdan o‘rganish matn mohiyatini chuqur his qilish hamda ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur mavzu yuzasidan bugungi kunda yetarli tadqiqot ishlari olib borilmagan bo‘lib, ushbu maqolada punktuatsiya belgilarini lingvopsixologik jihatdan o‘rganishni muhimligi xususida so‘z boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Matn semantikasini lingvopsixologik tahlil qilish va asosiy til vositalari va uni ifodalash usullarini aniqlash, muosabat badiiy so‘z orqali amalga oshirilganda ushbu jarayonning obyektivligini aniqlashga imkon beradi. Til vositalarining katta qismini tinish-belgilar tashkil qiladi. Mavzuga doir adabiyotlarni o‘rganib quydagi olimlarning izlanishlarida M. V. Lomonosov, K. Grot, A. B. Shapiro, V. I. Klassovskiy, S. I. Abakumov, J.V. Shcherba, A. M. Peshkovskiy, L. A. Bulakovskiy, V. A. Itkovich, L. G. Vedenina, N. S. Valgina, A. B. Penkovskiy, B. S. Shvartskopf singari olimlarning ilmiy ishlari va amaliy qo‘llanmalarida punktuatsiya belgilarining lingvopsixologik xususiyatlari haqida kichik bo‘limlar mavjud[1,B.122,145, 123].

Dunyodagi fanlarning eng qadimiylaridan biri – tilshunoslik necha o‘n asrlardiki, til deyiladigan tilsimning tabiatini, tub mohiyatini tushunish va tushuntirish yo‘lida tinimsiz izlanadi. Ayni izlanishlarning hosilasi o‘laroq bu fanda xilma-xil yo‘nalishlar, ilmiy qarashlar nuqtayi nazarlarning yuzaga kelganligidan bugun bexabar bo‘lgan tilshunos yo‘q [2,B.44]. O‘zbek tilshunosligi punktuatsiya bo‘limini lingvopsixologik jihatdan o‘rganish shunday muhim bo‘limlardandir.

Psixolingvistikadan farqli o‘laroq, lingopsixologiya psixologiya mavzusini (inson ongi, his-tuyg‘ulari, ongi, idrok) lingvistik metodlardan foydalanib, har kungi til prizmasi orqali o‘rganishdir. Bu lingvistik falsafa bilan qarindoshlik - ayniqsa Oksford maktabining an’analarida (ya’ni Oksford va Kembrijda) - falsafiy tushunchalarni kundalik til prizmasi orqali o‘rganish[3,B.27-30].

O‘zbek tili punktuatsiyasining birinchi asosi o‘zbek tilining grammatic sistemasi nutqning mazmun, intonatsiya va tuzilish tomonlarining bir butunligini tashkil qiladi. Bu o‘zbek tili punktuatsiyasining negizidir. Tinish belgilari gap va nutqning mazmun mundarijasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan fonetik-fonologik vositalarni (ko‘tariluvchi ohang, pasayuvchi ohang, to‘lqinli ohang, sanash ohangi, pauza kabi supersegment birliklarni) yozuvda ifodalash uchun qo‘llanadi. Bunday belgilar quyidagi ligvopsixologik vazifalarni bajaradi:

- a) ijtimoiy aloqani (fikr almashuvi jarayonini) yozuvda to‘g‘ri ifodalash uchun;
- b) maqsad, mazmun yoki ma’noni, ularning o‘ziga xos “rang” va “tus”larini yozuvda aniq ifodalash uchun;
- v) gapning tarkibini hamda shu tarkib elementlari (komponentlari)
- o‘rtasidagi grammatic-semantik munosabatlarni ifodalash uchun;
- g) yozma nutqning ixcham va ravonligini ta’minlash uchun;
- d) yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ifodalash uchun.

MUHOKAMALAR

O‘zbek tili punktuatsiyasining birinchi asosi o‘zbek tilining grammatic sistemasi nutqning mazmun, intonatsiya va tuzilish tomonlarining bir butunligini tashkil qiladi. Bu o‘zbek tili punktuatsiyasining negizidir[4,B.34]. Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U o‘zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan. Gap oxirida qo‘llanuvchi tinish belgilariga nuqta, so‘roq va undov belgilari kiritiladi. Gap oxirida qo‘llanuvchi tinish belgilari quyidagi umumiy xususiyatlarga ega: 1) gapning tugallanganligini ko‘rsatadi; 2) gapda qanday mazmun-ma‘no ifodalanganligini bildiradi; 3) gapning tugallanish chegarasini, mazkur gapning keyingi gapdan ajralishini ko‘rsatadi; 4) ular gap oxiridan boshqa o‘rinlarda ishlatilganda boshqa vazifa bajaradi va ayrim maqsadlar uchun ishlatiladi. Oxiriga nuqta, so‘roq va undov belgilari qo‘yilgan gaplar bir tarkibli va ikki tarkibli, to‘liq va to‘liqsiz, tasdiq va inkor, sodda va qo‘shma, ko‘chirma va o‘zlashtirma gap formalarida bo‘ladi. Gap ichida qo‘llanuvchi tinish belgilariga *vergul* kiradi. Vergul tinish belgisi sifatida G‘arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. Vergul gap boshida yoki gap oxirida qo‘llanmaydi, doim gap ichida ishlatiladi. Shuning uchun u gap o‘rtasida qo‘llanuvchi tinish belgisi sanaladi. Hozirgi o‘zbek tilida vergulning qo‘llanish doirasi va funksiyasi kengaygan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda nuqta va vergul punktuatsiya belgilarining lingvopsixologik jihatdan o‘rganish nutqning mazmun, intonatsiya va tuzilish tomonlarining bir butunligini saqlab qolishda muhim ahamiyatga egadir. “... Aslida, bu fikr lingvopsixologikdir, chunki til nutq faoliyatini tartibga soluvchi me'yordir, fikrlash, idrok etish, xotiraning aqliy jarayonlari bu faoliyatning ichki tomoni bo‘lib, uni rejalashtirish, dasturlash va aloqa holatiga muvofiq tuzatishni amalga oshiradi. Til, nutq va nutq faoliyati o‘rtasidagi munosabatlarning bunday namoyishi kitobning nomini – “nutq faoliyatining lingvistik psixologiyasi” ni aniqladi, unda nutq faoliyatini inson faoliyatining o‘ziga xos turi sifatida talqin qilishning lingvistik, psixolingvistik va psixologik jihatlari aks ettirilgan. Shunday ekan bugungi kunda punktuatsiya belgilarini lingvopsixologik jihatdan tadqiqot ishlarini ko‘paytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Болотнова Н.С. Филологический анализ текста. Изд. 3-е, доп. - М., 2007.
2. Ne'matov H. Tajalli tasavvuf bilish nazariyasi va tilshunoslikdasintaksisni o'rghanish masalalari // O'zbek tili va adabiy til, 1993.№2.
3. <http://o-psihologii.info/obshee/672-lingvopsixologiya.html>
4. K.Nazarov. "O'zbek tili punktuatsiyasi". Т.: O'qituvchi, 1976 y.
5. <http://psychlib.ru/mgppu/zlp/ZLP- 001-.HTM>.